

YOSHLARNI O'QISHGA KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH

Abidova Mahbubaxon Turgunovna

Marg'ilon shahar 2 – son kasb-hunar maktabi direktori

Fozilova Feruza Kamildjanovna

Marg'ilon shahar 2 – son kasb-hunar maktabi o'quv ishlari bo'yicha director o'rinbosari

Sadikova Dildora Shukurullayevna

Marg'ilon shahar 2 – son kasb-hunar maktabi Ijtimoiy fanlar o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'lim jarayonida o'quvchi yoshlarni kasbga yo'naltirish, kasb tanlash masalalari, shungdek, o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda yosh bosqichlarini inobatga olish hususiyatlari bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim jarayoni, kasbga yo'naltirish, kasbiy targ'ibot, extiyoj, kasb tanlash.*

Mustaqil O'zbekistonda ta'lim tizimida o'quvchi yoshlarni tarbiyasiga nisbatan qo'yayotgan eng muxim talablardan biri, layoqatli, ijodiy va mustaqil fikrlovchi, shaxslararo munosabatlarni tashkil qilishga o'quvli mutaxassislarni tarbiyalashdan iboratdir. Zero, bugungi globallashuv davrida yuksak texnologiyalarni boshqarishga layoqatli mutaxassislar etishtirishga erishilsa, ezgu niyatlar ijtimoiy hayotda qaror topgan bo'lar edi. Ijtimoiy taraqqiyotni ro'yobga chiqarish uchun mamlakatda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularni jahon standartlari darajasiga ko'tarmoq lozim, fan va texnikaning bugungi kun taraqqiyotiga javob berish uchun keng saviyali, bilimdon, o'z kasbining fidoiy kishisini kamol toptirish orqali davlatimizda bozor iqtisodiyotiga bardosh beradigan, raqobatbardosh mahsulotlar yaratuvchi kasb egalarini shakllantirish joiz. Toki ular davr talablariga og'ishmay javob beradigan, qiziqishi keng, malakasi mustahkam, xotirasi barqaror, fikr yuritishi puxta, izlanuvchan, mehnatsevar, vatatsharvar, iymon-e'tiqodli insonlar bo'lib voyaga etishadi. Buning uchun uzluksiz ta'lim tizimining barcha jabhalarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ahamiyati kattadir. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda faoliyat masalasi muhim masala xisoblanadi. Jonli mavjudotni muayyan tarzda va muayyan yo'nalishda xarakat qilishga undaydigan extiyojlar shaxsning faolligi manbai bo'lib xisoblanadi.

Extiyoj – jonli mavjudotning xayot kechirishning konkret shart-sharoitlariga uning qaramligini ifoda etuvchi va bu shart-sharoitlarga nisbatan uning faolligini vujudga keltiruvchi xolatidir. Kishining faolligi extiyojlarning qondirilishi jarayonida namoyon bo'ladi. Kishining extiyoji uni tarbiyalash jarayonida shakllanadi. Demak, kishining o'z extiyojlarini qondirish jarayoni ijtimoiy taraqqiyot bilan belgilanadigan faoliyat shakli egallashning faol, muayyan maksadga yo'naltirilgan jarayon sifatida aloxida ajralib turadi. Mustaqil O'zbekistonda o'quvchilarni tarbiyasiga nisbatan qo'yayotgan eng muxim



talablardan biri ularda mexnat qilish extiyojini tarbiyalashdan iboratdir. Mexnat qilishga boʻlgan extiyojning yanada rivojlanishi ishlab chiqarishni rivojlantirish, koʻpgina ishlab chiqarish jarayonlarini maksimal darajada avtomatlashtirish, mexnat sharoitlarini yaxshilash, ish vaqtini qisqartirish natijasida, faqat ijtimoiy foydali mexnatdagina oʻzini namoyon eta oladigan bunyodkorlik kuchlarini jonlantirish oqibatida yuz beradi. Umumiy taʼlim maktabini isloh qilishning asosiy yoʻnalishlarida oʻquvchilarning mexnat tarbiyasi va kasbga yoʻnaltirilishi qanday rol oʻynashiga aloxida eʼtibor berilgan. Extiyojlar kelib chiqishiga koʻra tabiiy va madaniy boʻlishi mumkin. Tabiiy extiyojlarda kishining faollik kasb etayotgan faoliyati, uning xayoti va uning avlodi xayotini saklash uchun zarur boʻlgan shart-sharoitlarga boʻysunganlik ifodalanadi. Madaniy extiyojlarda odamning faol faoliyati insoniyat madaniyatining maxsuliga bogʻliq ekanligi ifodalanadi; uning ildizlari butunlay kishilik tarixining sarxadlariga borib taqaladi. Maʼnaviy jixatdan oʻrinli boʻlgan extiyoj odam yashayotgan jamiyatning talablariga javob beradigan, ana shu jamiyatda qabul qilingan didlar, baxolar va dunyoqarashga mos keladigan extiyojlardir. Extiyojlar oʻz predmetining xarakteriga koʻra moddiy va maʼnaviy boʻlishi mumkin. Moddiy extiyojlarda kishining moddiy madaniyat predmetlariga qaramligi (ovqatlanishiga, kiyinishiga, uy-joyga, maishiy turmush ashyolariga va boshqa narsalarga extiyoj sezish) maʼnaviy extiyojlarda esa ijtimoiy ong maxsuliga tobeligi ifodalanadi. Maʼnaviy extiyojlar maʼnaviy madaniyatni yaratish va oʻzgartirishda oʻz aksini topadi. Oʻquvchi oʻz fikr-muloxazalari va tuygʻularini boshqalar bilan baxam koʻrishga gazetalar, kitoblar va jurnallar oʻqishga kinofilmlar va spektakllar koʻrishga, muzika tinglashga va shu kabilarga extiyoj sezadi. Maʼnaviy extiyojlar moddiy extiyojlar bilan uzviy bogʻliqdir. Maʼnaviy extiyojlarni qondirish uchun, moddiy extiyojlar predmeti xisoblanmish moddiy narsalar (kitoblar, gazetalar, yozuv va nota qogʻozlari, buyoqlar va shu kabilar) talab qilinishi shubxasiz. Shu tariqa, kelib chiqishiga koʻra, tabiiy, shu bilan birga predmetiga koʻra moddiy, kelib chiqishiga koʻra madaniy xisoblangan extiyoj yo moddiy boʻlishi, yo predmetiga koʻra maonaviy boʻlishi mumkin. Agar xayvonlarning xatti-xarakati butunlay atrof muxit bilan belgilansa, kishining faolligi uning ilk yoshligidanoq butun insoniyat tajribasi va jamiyat talablariga koʻra yoʻnaltirilib boriladi. Xatti-xarakatning bu turi shu qadar oʻziga xoslikka egaki, oʻquvchilarni kasbga yoʻnaltirish psixologiyasida uning atash uchun maxsus termin – kasb faoliyati termini qoʻllaniladi. Inson kasb faolligida «xarakat», «faoliyat», «xulq» tushunchalari bilan chambarchas bogʻliq. Shaxs aynan turli kasb faolliklar doirasida shakllanadi, oʻzligini namoyon qiladi xam. Demak, kasb faolligi yoki inson kasb faoliyati passiv jarayon boʻlmay, u ongli ravishda boshqariladigan faol jarayondir. Inson kasb faolligini mujassamlashtiruvchi xarakatlar jarayoni kasb faoliyati deb yuritiladi. YAʼni, kasb faoliyati – inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turli-tuman extiyojlardan kelib chiqadigan, xamda tashqi olamni va oʻz-oʻzini oʻzgartirish va takomillashtirishga qaratilgan uziga xos faollik shaklidir. Bu – moddiy neʼmatlar yaratishga qaratilgan mexnat faoliyati, bu – yangi kashfiyotlar ochishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati va shunga oʻxshash. Xar qanday kasb faoliyati real shart-sharoitlarda, turli usullarda va



turlicha ko`rinishlarda namoyon bo`ladi. Qilinayotgan xar bir xarakat ma`lum narsaga – predmetga qartilgani uchun xam, faoliyat predmetli xarakatlar majmui sifatida tasavvur qilinadi. Masalan, ma`ruzani konspekt qilayotgan talabaning predmetli xarakati yozuvga qaratilgan bo`lib, u avvalo o`sha daftardagi yozuvlar soni va sifatida o`zgarishlar qilish orqali bilimlar zaxirasini boyitayotgan bo`ladi. Kasb faoliyatining va uni tashkil etuvchi predmetli xarakatlarni aynan nimalarga yo`naltirilganligiga qarab, avvalo tashki va ichki kasb faoliyati farqlanadi. Tashqi kasbiy faoliyat shaxsni o`rab turgan tashqi muxit va undagi narsa va xodisalarni o`zgartirishga qaratilgan faoliyat bo`lsa, ichki kasbiy faoliyat birinchi navbatda aqliy faoliyat bo`lib, u sof kasbiy psixologik jarayonlarning kechishidan kelib chiqadi. Kelib chiqishi nuqtai nazaridan ichki-aqliy, psixik kasbiy faoliyat tashki predmetli faoliyatdan kelib chiqadi. Dastlab predmetli tashki faoliyat ro`y beradi, tajriba orttirib borilgan sari, asta-sekin bu xarakatlar ichki aqliy jarayonlarga aylanib boradi. Xar qanday sharoitda xam barcha xarakatlar xam ichki psixologik, xam tashqi-muvofiqlik nuqtai nazaridan ong tomonidan boshqarilib boradi. Xar qanday faoliyat tarkibida xam aqliy, xam jismoniy-motor xarakatlar mujassam bo`ladi. Agar o`ylayotgan odamni ziyraklik bilan kuzatsangiz, undagi etakchi kasbiy faoliyat aqliy bo`lgani bilan uning peshonalari, ko`zlari, xattoki, qo`l xarakatlari juda muxim va jiddiy fikr xususida bir to`xtamga kelolmayotganligidan, yoki yangi fikrni topib undan mamnuniyat xis qilayotganligidan darak beradi. Kasb tanlash faoliyatini oqilona tashkil etish uchun mamlakatimiz qaysi soxa mutaxassislariga muxtojligini nazarda tutish va shunga yarasha maktabo`quvchilarini ularning mayli, intilishi, qiliqishi, imkoniyati, aqliy va jismoniy qobiliyatlariga qarab, hamda u yoki bu kasbga yaroqliligini aniqlab, so`ngra kasbga yo`llash kerak. Kasbga yo`naltirish - bu ilmiy asoslangan va o`zini kasbini jamiyat ehtiyojlari sifatida, shuningdek, o`zini qiziqish va qobiliyatlarini xisobga olib, turg`un kasb tanlash uchun xayotga kirayotgan yoshlarga yordam beradigan psixolog-pedagog, tibbiyot va davlat tadbirlari tizimidir. Bu tadbirlar jamiyat va shaxs qiziqishlarini umumlashtiradi. Kasbga yo`naltirish tizimi xar bir o`zining vazifalariga va yechish metodlariga ega bo`lgan tizimlar va boshqichlardan iboratdir. Butunligicha u maktab imkoniyati va vazifalari chegarasidan chiqib ketadi, umumdavlat tadbirlariga aylanib, qator boshqa ishtirokchilarning qo`shilishini talab qiladi. Bular kasb-xunar kollejlari, oliy o`quv yurtlari, ishlab chiqarish korxonalari, qishloq xo`jaligi, transport va aloqa tizimi, kasbga yo`naltirish shaxs uchun idividual, shuningdek, jamiyat uchun ahamiyatga egadir. Bizning qobiliyatimizning aniq bir kasbga adashib tushishi tez-tez shaxsiy muvaffaqiyotsizlik bilan tugaydi. Ammo bu xatolardan shaxsning oz`i, oilasi qiynaladi, shuningdek, butun jamiyat xam qiynaladi. Yoshlarni kasbga yo`naltirishda faoliyat masalasi muhim masala xisoblanadi. Jonli mavjudotni muayyan tarzda va muayyan yo`nalishda xarakat qilishga undaydigan extiyojlar shaxsning faolligi manbai bo`lib xisoblanadi. Extiyoj – jonli mavjudotning xayot kechirishning konkret shart-sharoitlariga uning qaramligini ifoda etuvchi va bu shart-sharoitlarga nisbatan uning faolligini vujudga keltiruvchi xolatidir. Kishining faolligi extiyojlarning qondirilishi jarayonida namoyon bo`ladi. Kishining extiyoji uni tarbiyalash jarayonida shakllanadi. Demak, kishining o`z



extiyojlarini qondirish jarayoni ijtimoiy taraqqiyot bilan belgilanadigan faoliyat shakli egallashning faol, muayyan maqsadga yo`naltirilgan jarayon sifatida alohida ajralib turadi. Yoshlarning kasb tanlashi asosan, o`rta maktabdan boshlanadi, shunga ko`ra, o`qituvchilar jamoasi bilan psixologlar oldida turli yoshdagi, jinsdagi maktab o`quvchilarini kasbga qiziqtirish, mehnat qobiliyatlarini rivojlantirish, ichki imkoniyatlarini ishga solish (o`zini-o`zi namoyon etish) kabi muhim vazifa turadi. Bundan tashqari, psixologlar o`quvchilarning aql-idroki, qobiliyatlarini hamda muayyan kasbga yaroqlilik darajasini aniqlash metodlari, usullari, texnologiyasi, shakllari, mezonlari va tarkibiy qismlarini ishlab chiqishlari, shuningdek, bu sohada ilmiy- tadqiqot ishlari olib borishlari zarur. O`smirlar va ilk o`spirinlarning kasb tanlashi katta hayotiy ahamiyatga ega bo`lgan ham shaxsiy, ham ijtimoiy muammo bo`lganligidan bu jarayonda ota-onalar, jamoatchilik va turli kasb ustalari ham faol qatnashishlari kerak, chunki yoshlar ko`p hollarda kattalarning maslahatlari va tavsiyalarini hisobga olgan holda qat`iy bir fikrga, qarorga kelishlari mumkin.

Xulosa:

O`quvchilarni ta`lim tizimida mustaqil mehnat faoliyatiga puxta tayyorlash va ularning kasb-hunarini o`z qobiliyatlariga yarasha to`g`ri kasb tanlashlariga erishish uchun maktab o`qituvchilarining pedagogik mahorati, bilim saviyasi, didaktik (shuningdek, akademik, tashkilotchilik, pertseptiv va h.k.) qobiliyatlari yuksak bo`lishi, fan asoslarini turmush bilan bog`lab o`rganilishi, to`g`arak va qo`shimcha, yordamchi kurslar oqilona uyushtirilishi, maktablarda kasb-hunar to`g`risida ma`ruzalar o`qilishi, suhbatlar, munozaralar o`tkazilishi, sayohatlar, uchrashuvlar, kasb-hunar fotoko`rgazmalari tashkil qilishlari zarur. Shuningdek, yoshlarning kasb tanlashdagi reallikni vujudga keltirish maqsadida maktabda ilg`or kasb egalari, kasb faxriylari, kasb sulolalari bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari, kechalar va ma`ruzalar tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo`ladi. Ushbu tadbirlar o`quvchining shu kasbga bo`lgan qiziqishini yanada qat`iylashishini vujudga keltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Карандашев В.Н. Психология введение в профессию. 2- е изд - М.: Смысл, 2003. - 19 с.
2. Nabijonova D. O`quvchilarni kasbga yo`naltirish psixologiyasi. Toshkent: 2002. -38 b
3. Xaydarov F.I., Xaliliova N.I. “Umumiy psixologiya”. - Toshkent: Mumtoz so`z, 2010. - 97 b
4. G`oziev E.G`. Ontogenez psixologiyasi - Toshkent: Noshir , 2010. - 73 b.

